



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

«YO‘QOLIB BORAYOTGAN» O‘ZBEK TILI YOXUD ONA TILIMIZNI ASRAYLIK!

Rustamova Jasmina Uktam qizi

O'zDJTU Xorijiy til va adabiyoti

II fakultet 2-bosqich talabasi

Yuldasheva Farog‘at

Ilmiy rahbar:

O'zDJTU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqola ona tilimizni asrash, uni yanada takomillashtirish va ommaga keng targ‘ib qilish, uning yo‘qolib ketmasligining oldini olish va shu o‘rinda, til bilan birga jamiyatni va milliy qadriyatlarimizni saqlab qolishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *til, jamiyat, yoshlar, code-switching, kitobxonlik*

«O‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma‘naviy boylik, buyuk qadriyatdir.»

Sh. Mirziyoyev

Barchamizga ma‘lumki, asrlar davomida meros bo‘lib bizgacha yetib kelgan o‘zbek tili – dunyo tillari ichida eng boy tillardan biri. Til bor ekan, jamiyat ham tirik demakdir. Jamiyat – kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui. Axir jamiyat bu – biz!

Endi vijdonan javob beraylik. Biz o‘z ona tilimizni asrash uchun harakat qilyapmizmi? Bizdan keyin o‘zbek tili yana necha yil yashashi mumkin? Nega o‘z ona tilimiz qolib, boshqa tillarda so‘zlashyapmiz?

Hozirgi kunda yoshlarning barchasi chet tillarini o‘zlashtirayotganligi hech kimga sir emas, albatta. Maqsad dunyo bilimlarini egallash, chet ellik mutaxassislardan ilm olish, dunyoni o‘rganish va O‘zbekistonning buyuk kelajagiga o‘z bilimlari bilan katta hissa qo‘shish yetuk kadrlarni yetishtirib, O‘zbekistonni jahon standartlariga mos davlat qilish emasmi? Biroq yoshlarimiz buni biroz noto‘g‘ri targ‘ib qilishmayaptimikan? Nega deysizmi?

Hozirda ko‘cha-ko‘yda yoshlarning bir necha tillarni biri biriga qo‘shib so‘zlashayotganiga guvoh bo‘lamiz. Ilmiy ingliz tilida bu «code-switching» deyiladi. Ya‘ni, suhbatda ikki yoki undan ortiq til yoki til turlarini almashish amaliyoti. Boshqa tillarni o‘zbek tili bilan qo‘shib so‘zlayotganimiz uchun ham



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

o'zbek tilidagi sof so'zlarimiz deyarli muomaladan chiqib ketmoqda. Axir buning oqibatida butun bir tilning yo'qolib ketishi hech gap emas.

Olib borgan ilmiy tadqiqotimda Solihabonu (19 yosh) shunday deydi:

«Ba'zida buvijonim «ajabo» desalar, g'alati bo'lib ketaman. Go'yoki, bu so'zni umrimda birinchi marotaba eshitayotgandek. Shunda buvimga qarab asta jilmayib qo'yaman. Negadir buvimning aynan shu so'zini juda yoqtiraman.» Necha shundayligini bilasizmi? Chunki u bu so'zni juda kamdan-kam, faqatgina buvisidan eshitadi desak ham mubolag'a bo'lmaydi, albatta. Biz «ajabo» emas, balki «wow» deya hayratimizni ko'rsatishga o'rganib qolganmiz.

Yana bir O'zDJTU 4-bosqish talabasi Eldorbek: «-Gohida o'z fikrlarimni ifoda etish uchun turli tillarni qo'shib gapirishga odatlanib qolganman. Sababi rus maktabda o'qiganman, lekin oilada o'zbek tilida gaplashamiz. Shu sababli, o'z fikrlarimni o'zbek tilida aniq qilib aytolmagandan keyin rus so'zlardan qo'shib gapiraman», -deya so'zini yakunlaydi. Bir tomondan bunday insonlarni ham tushunsa bo'ladi. Axir ular ham buni o'zi xohlab qilishmaydi. Aslida, ular so'z boyliklari kamligidan aziyat chekmoqdalar. Bu kamchilikni qanday bartaraf etish mumkin?

Hozirda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham juda katta e'tiborni kitobxonlikka, savodxonlikka qaratmoqdalar. Buning sababi yosh avlodning fikrlash doirasini kengaytirish, undagi so'z boyligini oshirish, hayotdagi boshqa taqdirlarni ham bir o'rinda o'z xayollaridan o'tkazish, fikrlarini teran, nutqini ravon qilish demakdir.

Hozirgi kunga kelib, yosh avlod uchun kitob mutolaasi ancha osonlashib qoldi. Endi siz yo'lda ham elektron kitoblar o'qishingiz, yoki uy ishlarini qilgan holda ham audio kitoblarni bemalol tinglashingiz mumkin. Juda quvonarli tomoni shundaki, endilikda dunyoga mashhur, eng ko'p sotilgan kitoblarning o'zbek tilidagi tarjimasini ham o'qishingiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yilning 14-dekabrda 781-son «2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida» qarori imzolandi. Bu dasturning asosiy maqsadi kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, ijodkorlar, noshirlar va kitob tarqatuvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini izchil va samarali tashkil etish orqali faol kitobxonlar safini kengaytirish, aholi, ayniqsa, yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishdan iborat. Bundan tashqari yana yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish masalalari turli xildagi sovrinli viktorinalar, musobaqalar tashkil qilindi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Xulosa shunday, ona tilimizni asrab-avaylash, uni kelajak avlodga yetkazish va bu tilni saqlab qolish uchun biz to'xtab qolmasligimiz va ko'proq kitob o'qishimiz kerak! Zero, O'zbekiston kelajagi – yoshlar qo'lida!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.<https://lex.uz/ru/docs/-5160827>
- 2.<http://www.ddsmfa.uz/uz/shavkat-mirziyoyev-ozbek-tili-xalqimiz-uchun-milliy-ozligimiz-va-mustaqil-davlatchilik-timsoli>
- 3.<https://en.m.wikipedia.org/wiki/Code-switching>